**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

JUMANIYOZOV DOSTON ERKABOY O‘G‘LI

KICHIK O‘LCHAMLI NOASSOTSIATIV ALGEBRALARNING TASNIFI VA SODDA *n*-LI ALGEBRALARNI QURISH

01.01.06 – Algebra

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK: 512.554.1

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

JUMANIYOZOV DOSTON ERKABOY O‘G‘LI

KICHIK O‘LCHAMLI NOASSOTSIATIV ALGEBRALARNING TASNIFI VA SODDA *n*-LI ALGEBRALARNI QURISH

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/FM915 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www. kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ayupov Shavkat Abdullayevich** fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Arzikulov Farhod Nematjonovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Amir Fernandez Ouaridi fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Yangi O'zbekiston Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «19» dekabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (171-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Disertatsiya avtorefarati 2023 yil «5» dekabr kuni tarqatiladi.

(2023 yil 5 dekabr 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.,
katta ilmiy xodim

A.R.Hayotov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
rais o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda nazariy fizikada boʻlgani kabi, matematikaning koʻplab obyektlarining xossalarini noassotsiativ algebra elementlariga bogʻlagan holda aniqlash usullari yaratilmoqda. Noassotsiativ algebralar nisbiylik va kvant maydonlar nazariyasi, kvant mexanikasi hamda torlar nazariyasi kabi koʻplab nazariyalarga tadbiq qilinadi. Noassotsiativ algebralar nazariyasi masalalari uzoq yillar davomida dolzarb muammolar hisoblanib, Li algebralariga doir masalalar eng muhim masalalar qatorida sanaladi. Muayyan koʻphadlar oilasi orqali aniqlangan biror koʻpxillikda kichik oʻlchamli algebralarni izomorfizm aniqligida tasniflash assotsiativ boʻlmagan algebralar nazariyasidagi klassik muammodir. Berilgan koʻpxillikda nilpotent algebralarning algebraik tasnifini esa shu koʻpxillikdagi kichikroq oʻlchamdagi algebralarning markaziy kengaytmalarini hisoblash orqali olish mumkin. Chekli oʻlchamli algebralar nazariyasining yana bir dolzarb masalalaridan biri ularni geometrik nuqtai nazardan oʻrganish boʻlib, bunda algebralarning degeneratsiyalarini hisoblash, ushbu koʻpxillikdagi barcha keltirilmas komponentalarni aniqlash imkonini beradi.

Noassotsiativ algebralar nazariyasining yana bir qiziqarli yoʻnalishi bu Li algebralarini umumlashmasi boʻlgan n-Li algebralari nazariyasidir. Yakobian orqali berilgan cheksiz oʻlchamli n-Li algebrasi muhim misollardan biri boʻlib, keyinchalik u boshqa cheksiz oʻlchamli n-Li algebralarning qurilishiga turtki boʻlgan. Hozirgi kunga kelib, cheksiz oʻlchamli sodda n-Li algebralarning Yakobian, Vronskiyan kabi ataluvchi operatorlar yordamida qurilgan sinflari mavjud boʻlib, ulardan boshqa cheksiz oʻlchamli sodda n-Li algebrasi mavjudmi degan savol n-ar algebralar nazariyasining dolzarb masalalaridan biri boʻlib kelmoqda.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ilmiy va amaliy qoʻllanilishiga ega boʻlgan fundamental fanlar - matematika, fizika, geologiya hamda biologiya fanlariga e’tibor kuchaymoqda. Xususan, noassotsiativ algebralar boʻyicha fundamental tadqiqotlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu fundamental tadqiqotlar doirasida chekli oʻlchamli assotsiativ boʻlmagan algebralarni oʻrganishda muhim natijalarga erishildi. Ilmiy ishning[1] asosiy vazifasi “Algebra va funksional analiz” ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida tadqiqot olib borishdan iborat. Ilmiy natijalarni tegishli fan sohasida qoʻllash uchun chekli oʻlchamli noassotsiativ algebralar nazariyasini ishlab chiqish belgilangan vazifaning bajarilishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi 292-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g’risida»gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789 sonli “Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682 sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish tizimi to‘g‘risida”gi qarori, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Li algebralari 19-asrning 70 yillarida M. Sofus Li tomonidan inifinitesmal transformatsiyalarni o‘rganish maqsadida fanga kiritilgan. Yordan algebralari esa 1933 yilda kvant elektrodinamikasi masalalarini tatqiq qilish natijasida nemis matematigi Paskal Jordan tomonidan aniqlangan. Keyinchalik, Li va Yordan algebralarining bir qator umumlashmalari, Maltsev algebralari, Leibniz algebralari, kvadratik Yordan algebralari, nokommutativ Yordan algebralari, kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralari kabi algebralar A.I.Maltsev, J.L.Loday, K.MakKrimmon, M.Osborn, I.Kaygorodov va P.Zusmanovich tomonidan o‘rganila boshlangan.

Li algebralari va ularning umumlashmalari noassosiativ algebralar nazariyasining alohida yo’nalishi sifatida shakllandi. Xususan, Leybnits algebralari so‘nggi yillarda eng dolzarb sohalardan biri hisoblanib, uning strukturaviy nazariyasi va tasniflash masalalari bo‘yicha Sh.Ayupov, S.Albeverio, K.Kudaybergenov, B.Omirov va I.Rahimov tomonidan ko‘plab natijalar olingan. A.Albert 1948 yilda alternativ va Yordan algebralarining bir qancha umumiy xossalaridan foydalangan holda tabiiy ravishda bu algebralar biror umumiyroq sinfning qismi bo‘ladi degan farazni ilgari surib, nokommutativ Yordan algebralarini aniqlagan. Keyinchalik, 1955 yilda R.Shafer nokommutativ Yordan algebralari ko‘pxilligi aynan Yordan ayniyati hamda egiluvchanlik ayniyati bilan aniqlanishini ko‘rsatgan.

Noassotsiativ algebralarning yangi sinflaridan biri bo‘lgan $\mathfrak{CD}$-algebralari esa I.Kaygorodov va P.Zusmanovichning ishida kiritilgan bo‘lib, bu algebralarning aniqlanishiga Li va Yordan algebralarida ixtiyoriy ikkita o‘ng yoki chap ko‘paytirish operatorlarining kommutatori differensiallash bo‘lish sharti asos hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar nilpotent noassotsiativ algebralarning algebraik tasnifiga e’tibor qaratishmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bu berilgan ko‘phillikdagi algebralar haqida aniqroq ma’lumotga ega bo‘lishdir. Bundan tashqari, algebraik tasnif keyinchalik ularni geometrik nuqtai nazardan tadqiq qilish imkonini beradi. Ya’ni algebralarni geometrik tasniflash orqali muhim masalalardan biri hisoblangan biror ko‘pxillikdagi barcha keltirilmas komponentlarini tavsiflash muammosi hal qilinadi. Nilpotent noassotsiativ algebralarning algebraik va geometrik tasnifiga oid ko‘plab ilmiy ishlar chop qilingan. Jumladan, kompleks sonlar maydoni ustida nilpotent assotsiativ kommutativ algebralarning algebraik tasnifi I.Kaygorodov, I.Rahimov va Sh.K.Said Husayn tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, A.Hegazi hamda H.Abdelvahab besh o‘lchamli nilpotent noassotsiativ Yordan algebralarini tasnifladilar. I.Kashuba va M.Martin bu algebralarning geometrik xossalarini tadqiq qilishgan. Bundan tashqari, kompleks sonlar maydoni ustida to‘rt o‘lchamli Li algebralarining orbita yopilmalarining tasnifi D.Burde va C.Steinhoff tomonidan o‘rganilgan.

Noassotsiativ algebralar nazariyasining yana bir muhim yo‘nalishi n-Li algebralar nazariyasi hisoblanadi. Dastlab, Ω-algebra tushunchasi A.G.Kurosh tomonidan kiritilgan bo‘lib, keyinchalik V.T.Filippov tomonidan Yakobian operatori orqali n-Li algebralari aniqlangan. Bundan tashqari, A.Djumadildayev esa Vronskian operatori orqali aniqlanuvchi sodda n-Li algebrasiga misol keltirgan. N.Kantarini va V.Kats tomonidan yuqoridagi 2 ta sodda n-Li algebrasidan tashqari yana bir sodda n-Li algebrasi keltirilib, n-Li algebralar nazariyasida hozirda mavjud uchta cheksiz o‘lchamli sodda n-Li algebralaridan boshqa cheksiz o‘lchamli sodda n-Li algebrasi mavjudmi degan savol qo‘yilgan va bu muammo hozirigi kungacha hal qilinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institutining «Operator algebralarining avtomorfizmlari, cheksiz o‘lchamli noassotsiativ algebralar va superalgebralarning tasnifi» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi (FZ-2020093065, 2021-2025 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik o‘lchamli niplotent nokommutativ Yordan va kommutativ algebralar ko‘pxilliklarining algebraik tasnifini aniqlash, ushbu ko‘pxilliklarning barcha keltirilmas komponentalalarini topish hamda cheksiz o‘lchamli sodda n-Li algebralarni qurishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik o‘lchamli nilpotent noassotsiativ algebralarning ayrim sinflarini tasniflash;

kichik o‘lchamli nilpotent noassotsiativ algebralarning geometrik tasnifini olish;

cheksiz o‘lchamli sodda n-Li algebralarini qurish.

Tadqiqotning obyekti: nokommutativ Yordan algebralar, Kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralar, n-Li algebralar.

Tadqiqotning premeti: to‘rt o‘lchamli niplotent nokommutativ Yordan algebralari, besh o‘lchamli nilpotent kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralar, cheksiz o‘lchamli sodda n-Li algebralar.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada markaziy kengaytmalar usuli, tasniflash usullari, keltirilmas komponentalarni aniqlash usuli, shuningdek, invariantlar nazariyasi usullari foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to‘rt o‘lchamli niplotent nokommutativ Yordan va besh o‘lchamli nilpotent kommutativ algebralari to‘liq tasniflangan;

to‘rt o‘lchamli nilpotent nokommutativ Yordan algebralar ko‘pxilligining barcha keltirilmas komponentalari topilgan va ushbu ko‘pxillikdagi qattiq algebralar soni beshta ekanligi isbotlangan;

o‘ng yoki chapdan ko‘paytirish operatorlarining kommutatori differensiallash bo‘ladigan algebralar ko‘pxilligi o‘nta keltirilmas komponentadan iboratligi isbotlangan;

Yakobian va Vronskian operatorlari bilan aniqlangan n-Li algebralarni umumlashtirish orqali yangi n-Li algebralar qurilgan hamda ushbu algebralarning ba’zilari sodda bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlari magistr talabalari va doktorantlari uchun maxsus kurslarda o‘qitilishi mumkin. Bundan tashqari, cheksiz o‘lchamli sodda n-Li algebralari bo‘yicha dissertatsiya natijalari sodda n-Li algebralari haqidagi bir qancha ilmiy farazlarni tekshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik mulohazalarning qat’iyligi, algebralarning boshqa sinflaridagi ma’lum usullaridan, kogomologiyalar nazariyasi, algebralarining strukturaviy nazariyasidagi fundamental natijalardan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Mathematica 13 dasturlash tilida yaratilgan maxsus dasturlar yordamida kichik o‘lchamli algebralarning differensiallashlari va degeneratsiyalariga doir natijalar tekshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshqa ko‘pxillikdagi algebralarni tadqiq qilish uchun ishlatilishi mumkin. Xususan, ushbu dissertatsiyada ishlab chiqilgan texnika va usullar cheksiz o‘lchamli n-Li algebralari haqidagi ilmiy farazni hal qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalardan algebraik strukturalar nazariyasida foydalanish mumkin. Dissertatsiyadagi barcha natijalar va qo‘llanilgan usullardan oliy ta’lim muassasalarining magistratura va doktorantura talabalari uchun maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik o‘lchamli noassotsiativ algebralarning tasnifi va sodda n-Li algebralarni qurish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘ng yoki chapdan ko‘paytirish operatorlarining kommutatori differensiallash bo‘ladigan algebralar ko‘pxilligini tasniflashda olingan natijalardan AP08051987 raqamli “Dinamik tizimlardagi noregulyar to‘plamlar” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida besh o‘lchamli yagona hosil qiluvchiga ega nilpotent assosimmetrik algebralarning tasnifini olish uchun foydalanilgan (Suleyman Demirel Universitetining 2023 yil 1-noyabrdagi №1.1-11/1141-sonli ma’lumotnomasi, Qozog‘iston). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi besh o‘lchamli yagona hosil qiluvchiga ega nilpotent assosimmetrik algebralar ko‘pxilligining keltirilmas komponentlarini aniqlash imkonini bergan;

to‘rt o‘lchamli niplotent nokommutativ Yordan algebralarning to‘liq tasnifidan xorijiy ilmiy jurnallardagi maqolalarda (Journal of Algebra and its Applications, 20, 2021, 2150198; Communications in Mathematics, 29, 2021, 215-226; Journal of Pure and Applied Algebra, 226, 2022, 106850; Journal of Algebra and its Applications, 21, 2022, 2250031) nilpotent algebralarning algebraik va geometrik tasniflarini olishda foydalanilgan. Ilmiy natijaning qo‘llanilishi besh va olti o‘lchamli bitta hosil qiluvchili nilpotent kompleks bikommutativ algebralarning to‘liq tasnifini olish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi xorijiy, 1 tasi respublika jurnallarida, shuningdek 5 ta ma’ruza tezislari ilmiy konferensiya materiallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qism, o‘nta bo‘limga bo‘lingan to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 121 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish qism, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, bu qismda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Asosiy tushunchalar**” nomli birinchi bobida noassotsiativ algebralar nazariyasining boshlang‘ich tushunchalari qatorida bir qator noassotsiativ algebralar ta’riflari keltirilgan. Bundan tashqari, bu bob noassotsiativ algebralarni tasniflash va ularning keltirilmas komponentalarini topish usullari bilan bir qatorda n-Li algebralar nazariyasining boshlang‘ich tushunchalarini o‘z ichiga oladi.

Birinchi bobning birinchi bo‘limida boshlang‘ich tushunchalar, Yordan, nokommutativ Yordan va $\mathfrak{CD}$-algebralarining ta’riflari keltirilgan.

Ma’lumki, chiziqli fazoda ko‘paytirish amali aniqlangan bo‘lsa, u holda bu chiziqli fazo ushbu ko‘paytirish amali bilan birgalikda algebra deb ataladi. Bizga **A** va **B** algebralar berilgan bo‘lsin. Quyidagi

$$\varphi(xy) = \varphi(x)\varphi(y)$$

shartni qanoatlantiruvchi $\varphi : \mathbf{A} \to \mathbf{B}$ chiziqli akslantirish esa gomomorfizm deyiladi. Biyektiv gomomorfizmga esa izomorfizm deb ataladi. Algebrani o‘zini o‘ziga akslantirvchi izomorfizm esa avtomorfizm deyiladi.

1-ta’rif. *Agar* **A** *algebraning ixtiyoriy* $x, y \in \mathbf{A}$ *elementlari uchun quyidagi ayniyatlar o‘rinli bo‘lsa*:

$$xy = yx, \qquad x^2(yx) = (x^2y)x,$$

u holda **A** *Yordan algebrasi deyiladi.*

2-ta’rif. *Agar* **A** *algebraning ixtiyoriy* $x, y \in \mathbf{A}$ *elementlari uchun quyidagi ayniyatlar o‘rinli bo‘lsa*:

$$x(yx) = (xy)x, \qquad x^2(yx) = (x^2y)x,$$

u holda **A** *nokommutativ Yordan algebrasi deyiladi.*

Takidlash kerakki, har qanday Yordan algebra nokommutativ Yordan algebra bo‘ladi.

Berilgan **A** algebra uchun quyidagi *quyi markaziy qator* deb ataluvchi ketma-ketlikni aniqlaylik:

$$\mathbf{A}^1 = \mathbf{A}, \ \mathbf{A}^{k+1} = \mathbf{A}^k\mathbf{A} + \mathbf{A}^{k-1}\mathbf{A}^2 + \ldots + \mathbf{A}\mathbf{A}^k, \ k \geq 1.$$

3-ta’rif. *Agar biror* $s \in \mathbb{N}$ *natural son topilib* $\mathbf{A}^s = 0$ *tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda* **A** *algebra nilpotent deyiladi. Bu shartni qanoatlantiruvchi eng kichik s son nilpotentlik indeksi deyiladi. Agar algebraning nilpotentlik indeksi* 3 *ga teng bo‘lsa bunday algebraga* 2*-qadam algebra deyiladi*.

Agar $d : \mathbf{A} \to \mathbf{A}$ chiziqli akslantirish barcha $x, y \in \mathbf{A}$ elementlar uchun quyidagi shartni qanoatlantirsa:

$$d(xy) = d(x)y + xd(y),$$

u holda d differensiallash deyiladi. Der(**A**) orqali algebraning barcha differensiallashlari to‘plamini belgilaymiz.

4-ta’rif. *Agar* **A** *algebra uchun* $[R_a, R_b], [R_a, L_b], [L_a, L_b]$ *operatorlar differensiallash bo‘lsa, u holda bu algebra* $\mathfrak{CD}$*-algebrasi deyiladi.*

Boshqacha aytganda, agar **A** algebra uchun quyidagi ayniyatlar o‘rinli bo‘lsa:

$$\big((xy)a\big)b + \big((xb)a\big)y + x\big((yb)a\big) = \big((xy)b\big)a + \big((xa)b\big)y + x\big((ya)b\big),$$
$$b\big((xy)a\big) + \big((bx)a\big)y + x\big((by)a\big) = \big(b(xy)\big)a + \big(b(xa)\big)y + x\big(b(ya)\big),$$
$$b\big(a(xy)\big) + \big(a(bx)\big)y + x\big(a(by)\big) = a\big(b(xy)\big) + \big(b(ax)\big)y + x\big(b(ay)\big).$$

U holda bu algebra $\mathfrak{CD}$-algebra deb ataladi.

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limida markaziy kengaytma usuli keltirilgan.

Aytaylik $(\mathbf{A},\cdot)$ biror $F(x_1,\ldots,x_n)=0$ ayniyat orqali aniqlangan biror algebra va $\mathbb{V}$ chiziqli fazo bo‘lsin. $\theta:\mathbf{A}\times\mathbf{A}\to\mathbb{V}$ bichiziqli akslantirishni qaraylik. Bu akslantirish yordamida $\mathbf{A}_\theta=\mathbf{A}\oplus\mathbb{V}$ chiziqli fazoda quyidagi shakldda ko‘paytirish amalini aniqlaymiz:

$$[x+x_0,y+y_0]=x\cdot y+\theta(x,y) \text{ for all } x,y\in\mathbf{A},x_0,y_0\in\mathbb{V}.$$

Yuqoridagi kabi aniqlangan $\mathbf{A}_\theta$ algebra $\mathbf{A}$ algebraning $\mathbb{V}$ vektor fazo orqali k-o‘lchamli markaziy kengaytmasi deyiladi.

Ravshanki, $\mathbf{A}_\theta$ algebrada $F(x_1,\ldots,x_n)=0$ ayniyat o‘rinli bo‘lishi uchun θ akslantirish $\theta(F(x_1,\ldots,x_n))=0$ ayniyat orqali aniqlanuvchi trivial 2-kosikllik shartini qanoatlantirishi zarur va yetarlidir.

Masalan, ayniyatning ko‘rinishi $F(x,y,z)=x(yz)+z(yx)-(xy)z-(zy)x$ kabi bo‘lsa, u holda $\theta(F(x,y,z))$ ifoda quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\theta(F(x,y,z))=\theta(x,yz)+\theta(z,yx)-\theta(xy,z)-\theta(zy,x). \qquad (1)$$

Ushbu $\theta(F(x_1,\ldots,x_n))=0$ ayniyatni qanoatlantiruvchi barcha $Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ bichiziqli akslantirishlar to‘plamini $Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ kabi belgilaymiz. Bu elementlar trivial 2-kosikllar deyiladi. Berilgan $f:\mathbf{A}\to\mathbb{V}$ chiziqli akslantirish uchun $\delta f:\mathbf{A}\times\mathbf{A}\to\mathbb{V}$ bichiziqli akslantirishni $\delta f(x,y)=f(xy)$ kabi aniqlasak, u holda $\delta f\in Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ bo‘ladi. Demak, $B^2(\mathbf{A},\mathbb{V})=\{\theta=\delta f : f$ chiziqli akslantirish$\}$ kabi aniqlangan chiziqli fazo $Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ fazoning qismfazosi bo‘ladi. U holda, $\mathbf{A}$ algebraning ikkinchi kogomologik fazosi $H^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ esa $Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})/B^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ faktor fazo orqali aniqlanadi.

Aytaylik, $\mathbf{A}$ algebraning avtomorfizmlar gruppasi $Aut(\mathbf{A})$ berilgan bo‘lsin. Ushbu $Aut(\mathbf{A})$ gruppaning $Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ fazoga ta’sirini

$$\phi.\theta(x,y)=\theta(\phi(x),\phi(y))$$

kabi aniqlaymiz, bu yerda $\phi\in Aut(\mathbf{A})$ va $\theta\in Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$. U holda, $B^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ qismfazo bu ta’sirga nisbatan invariant bo‘ladi. Demak, biz $Aut(\mathbf{A})$ gruppaning $H^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ fazoga ta’sirini ham qarashimiz mumkin.

$Ann(\theta)=\{x\in\mathbf{A}:\theta(x,\mathbf{A})=\theta(\mathbf{A},x)=0\}$ to‘plam θ elementning annulyatori va $Ann(\mathbf{A})=\{x\in\mathbf{A}:x\mathbf{A}=\mathbf{A}x=0\}$ to‘plam esa $\mathbf{A}$ algebraning annulyatori deb ataladi. Qayd etish joizki, $Ann(\mathbf{A}_\theta)=(Ann(\theta)\cap Ann(\mathbf{A}))\oplus\mathbb{V}$ tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Quyidagi natija A.Hegazi va H.Abdelvahab tomonidan Yordan algebralari uchun isbotlangan. Aslida bu natija ixtiyoriy noassotsiativ algebra uchun o‘rinlidir. Unga ko‘ra har qanday annulyatori noldan farqli algebra kichikroq o‘lchamli algebraning markaziy kengaytmasidir.

1-lemma. *Aytaylik*, $\mathbf{A}$ *algebra n-o‘lchamli muayyan tipdagi algebra va* $dim(Ann(\mathbf{A}))=m\neq 0$ bo‘lsin. *U holda*, *ayni tipdagi yagona* $(n\text{-}m)$*-o‘lchamli* $\mathbf{A}'$ *algebra va* $Ann(\theta)\cap Ann(\mathbf{A})=0$ *shartni qanoatlantiruvchi* $\theta\in Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ *mavjud bo‘lib,* $\mathbf{A}\cong \mathbf{A}_\theta'$, $\mathbf{A}/Ann(\mathbf{A})\cong\mathbf{A}'$ *munosabatlar o‘rinli bo‘ladi*, *bu yerda*, $\mathbb{V}$ *m-o‘lchamli chiziqli fazo*.

5-ta’rif. *Aytaylik* $\mathbf{A}$ *biror algebra va* $\boldsymbol{I}$ *esa* $Ann(\mathbf{A})$ *ning qism fazosi bo‘lsin*. *Agar* $\mathbf{A}=\mathbf{A_0}\oplus \boldsymbol{I}$ *bo‘lsa, u holda* $\boldsymbol{I}$ *fazo* $\mathbf{A}$ *algebraning annulyator komponenti deyiladi*. $\mathbf{A}$ *algebraning annulyator komponentasiz markaziy kengaytmasi ajralmaydigan markaziy kengaytma deyiladi.*

Aytaylik $e_1,e_2,\ldots,e_s$ va θ_1, $\theta_2,\ldots$, θ_s lar mos ravishda $\mathbb{V}$ hamda $Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ fazolarning bazislari bo‘lsin. U holda, ixtiyoriy θ element yagona ravishda $\theta(x,y)=\sum_{i=1}^{s}\theta_i(x,y)e_i$ kabi ifodalanadi, bu yerda $\theta_i\in Z^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$. Bundan tashqari, $Ann(\theta)=Ann(\theta_1)\cap Ann(\theta_2)\cap\ldots\cap Ann(\theta_s)$ tenglik o‘rinli bo‘lib, $\theta\in B^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ munosabat faqat va faqat $\theta_i\in B^2(\mathbf{A}, \mathbb{C})$ bo‘lganda o‘rinli bo‘ladi.

Quyidagi natija A.Hagazi va H.Abdelvahab tomonidan Yordan algebralari uchun isbotlangan. Aslida bu natija ixtiyoriy noassotsiativ algebra uchun o‘rinlidir.

2-lemma. *Aytaylik*, $\theta(x,y)=\sum_{i=1}^{s}\theta_i(x,y)e_i\in Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ *va* $Ann(\theta)\cap Ann(\mathbf{A})=0$ *bo‘lsin*. *U holda*, $\mathbf{A}_\theta$ *annulyator componentaga ega bo‘lishi uchun* $[\theta_1],[\theta_2],\ldots,[\theta_s]$ *elementlar* $H^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$ *fazoda chiziqli bog‘liq bo‘lishi zarur va yetarlidir*.

Yuqoridagi lemmadan foydalangan holda $(n\text{-}s)$-o‘lchamli $\mathbf{A}'$ algebraning barcha ajralmaydigan markaziy kengaytmalarini topish uchun quyidagicha tartibdagi ishlarni amalga oshirish zarurligiga ega bo‘lamiz:

1. Berilgan $(n\text{-}s)$-o‘lchamli $\mathbf{A}'$ algebra uchun $H^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$, $Ann(\mathbf{A}')$ va $Aut(\mathbf{A}')$ larni aniqlaymiz.
2. $Aut(\mathbf{A})$ gruppaning $H^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$ fazoga ta’sirini topib, $H^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$ ning elementlaridan tuzilgan qism fazoning orbitasini aniqlaymiz.
3. Har bir orbita uchun unga mos algebrani quramiz.

Endi, $\mathbf{A}$ algebra va uning $e_1,e_2,\ldots,e_n$ bazisi uchun Δ_{ij} bichiziqli formani quyidagicha kiritamiz:

$$\Delta_{ij}:\mathbf{A}\times\mathbf{A}\to\mathbb{C},\quad \Delta_{ij}(e_l,e_m)=\delta_{il}\delta_{jm}.$$

U holda, $\{\Delta_{ij} : 1 \le i, j \le n\}$ to‘plam **A** algebradagi bichiziqli formalar uchun bazis bo‘ladi, ya’ni har qanday $\theta \in Z^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ element $\theta = \sum_{1\le i\le j\le n} c_{ij}\Delta_{ij}$ kabi yagona usulda ifodalanadi, bu yerda $c_{ij} \in \mathbb{C}$.

Dissertatsiyaning “**Kichik o‘lchamli noassotsiativ algebralarning algebraik tasnifi**” nomli ikkinchi bobi 4-o‘lchamli nilpotent nokommutativ Yordan algebralar, 5-o‘lchamli nilpotent kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralar va 5-o‘lchamli nilpotent kommutativ algebralar ko‘pxilliklarini kompleks sonlar maydoni ustida algebraik tasniflashga bag‘ishlangan.

Aytaylik, $(\mathbf{J},\cdot)$ kompleks sonlar maydoni ustida berilgan Yordan algebra va $\mathbb{V}$ shu maydon ustida chiziqli fazo bo‘lsin. $Z^2(\mathbf{J}, \mathbb{V})$ orqali quyidagi ayniyatlarni qanoatlantiruvchi barcha bichiziqli $\theta:\mathbf{J}\times\mathbf{J}\to\mathbb{V}$ akslantirishlar to‘plamini belgilaymiz:

$$\theta(x, yz) + \theta(z, yx) = \theta(xy, z) + \theta(zy, x), \qquad (2)$$

$$\theta(xt, yz) + \theta(tx, yz) + \theta(tz, yx) + \theta(xz, yt) + \theta(zt, yx) + \theta(zx, yt) =$$
$$\theta((xt)y, z) + \theta((tx)y, z) + \theta((xz)y, t) + \theta((tz)y, x) + \theta((zx)y, t) + \theta((zt)y, x). \qquad (3)$$

Bu bichiziqli akslantirishlar **J** nokommutativ Yordan algebraning trivial 2-kosikllari deb ataladi.

Ravshanki, bir o‘lchamli notrivial nilpotent nokommutativ Yordan algebrasi mavjud emas. O‘lchami ikkiga teng bo‘lgan notrivial nilpotent nokommutativ Yordan algebralar soni bitta va u quyidagicha:

$$\mathbf{J}^2_{01} : e_1e_1 = e_2.$$

A.Martin Kalderon, A.Ouaridi Fernandez va I.Kaygorodov tomonidan olingan natijalarga asosan uch o‘lchamli nilpotent nokommutativ Yordan algebralari quyidaglardir:

$\mathbf{J}^3_{02}$: $e_1e_2 = e_3 \quad e_2e_1 = e_3$,

$\mathbf{J}^3_{03}$: $e_1e_2 = e_3 \quad e_2e_1 = -e_3$,

$\mathbf{J}^3_{04}(\lambda)$: $e_1e_1 = \lambda e_3 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_2e_1 = e_3$,

$\mathbf{J}^3_{05}$: $e_1e_1 = e_2 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_2e_1 = e_3$.

Biz quyidagi tasdiqda 3-o‘lchamli nilpotent nokommutativ Yordan algebralarining ikkinchi kogomologik fazolarini tasnifini keltiramiz:

1-tasdiq. *Quyidagi elementlar* 3*-o‘lchamli nilpotent nokommutativ Yordan algebralarining ikkinchi kogomologik fazolari uchun bazis bo‘ladi*:

A	$Z^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$	$B^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$	$H^2(\mathbf{A},\mathbb{C})$
$\mathbf{J}^3_{01}$	$\left\langle \begin{array}{l}\Delta_{11}, \Delta_{12}+\Delta_{21}, \Delta_{13}, \\ \Delta_{23}+\Delta_{32}, \Delta_{31}, \Delta_{33}\end{array}\right\rangle$	$\langle \Delta_{11} \rangle$	$\left\langle \begin{array}{l}[\Delta_{12}+\Delta_{21}], [\Delta_{13}], \\ [\Delta_{23}+\Delta_{32}], [\Delta_{31}], [\Delta_{33}]\end{array}\right\rangle$

$\mathbf{J}_{02}^{3}$	$\left\langle \begin{matrix} \Delta_{11}, \Delta_{12}, \Delta_{13} + \Delta_{31}, \\ \Delta_{21}, \Delta_{22}, \Delta_{23} + \Delta_{32} \end{matrix} \right\rangle$	$\langle \Delta_{12} + \Delta_{21} \rangle$	$\left\langle \begin{matrix} [\Delta_{11}], [\Delta_{13} + \Delta_{31}], \\ [\Delta_{21}], [\Delta_{22}], [\Delta_{23} + \Delta_{32}] \end{matrix} \right\rangle$
$\mathbf{J}_{03}^{3}$	$\left\langle \begin{matrix} \Delta_{11}, \Delta_{12}, \Delta_{13} - \Delta_{31}, \\ \Delta_{21}, \Delta_{22}, \Delta_{23} - \Delta_{32} \end{matrix} \right\rangle$	$\langle \Delta_{12} - \Delta_{21} \rangle$	$\left\langle \begin{matrix} [\Delta_{11}], [\Delta_{13} - \Delta_{31}], \\ [\Delta_{21}], [\Delta_{22}], [\Delta_{23} - \Delta_{32}] \end{matrix} \right\rangle$
$\mathbf{J}_{04}^{3}(\lambda)$	$\langle \Delta_{11}, \Delta_{12}, \Delta_{21}, \Delta_{22} \rangle$	$\langle \lambda\Delta_{11} + \Delta_{21} + \Delta_{22} \rangle$	$\langle [\Delta_{11}], [\Delta_{12}], [\Delta_{22}] \rangle$
$\mathbf{J}_{05}^{3}$	$\left\langle \begin{matrix} \Delta_{11}, \Delta_{12} + \Delta_{21}, \\ \Delta_{13} + \Delta_{22} + \Delta_{31} \end{matrix} \right\rangle$	$\langle \Delta_{11}, \Delta_{21} + \Delta_{21} \rangle$	$\langle [\Delta_{13} + \Delta_{22} + \Delta_{31}] \rangle$

bu yerda $\mathbf{J}_{01}^{3} = \mathbf{J}_{01}^{2} \oplus \mathbb{C}e_3$.

Quyidagi teorema bu bo‘limning asosiy natijasi hisoblanadi:

1-teorema. *Har qanday* 4-*o‘lchamli nilpotent nokommutativ Yordan algebra* 2-*qadam nilpotent yoki quyidagi o‘zaro izomorf bo‘lmagan algebralarning birortasiga izomorf bo‘ladi*:

$\mathbf{J}_{01}^{4}:\quad e_1e_1 = e_2 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_2e_1 = e_3$

$\mathbf{J}_{02}^{4}:\quad e_1e_1 = e_2 \quad e_2e_3 = e_4 \quad e_3e_2 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4$

$\mathbf{J}_{03}^{4}:\quad e_1e_1 = e_2 \quad e_1e_2 = e_4 \quad e_2e_1 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4 \quad e_3e_3 = e_4$

$\mathbf{J}_{04}^{4}:\quad e_1e_1 = e_2 \quad e_1e_2 = e_4 \quad e_2e_1 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4$

$\mathbf{J}_{05}^{4}:\quad e_1e_1 = e_2 \quad e_2e_3 = e_4 \quad e_3e_2 = e_4$

$\mathbf{J}_{06}^{4}:\quad e_1e_1 = e_2 \quad e_1e_2 = e_4 \quad e_2e_1 = e_4 \quad e_3e_3 = e_4$

$\mathbf{J}_{07}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = e_3 + e_4 \quad e_2e_3 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4 \quad e_3e_2 = e_4$

$\mathbf{J}_{08}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = e_3 + e_4 \quad e_2e_2 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4$

$\mathbf{J}_{09}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = e_3 + e_4 \quad e_3e_1 = e_4$

$\mathbf{J}_{10}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = e_3 \quad e_2e_3 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4 \quad e_3e_2 = e_4$

$\mathbf{J}_{11}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = e_3 \quad e_3e_1 = e_4$

$\mathbf{J}_{12}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = e_3 \quad e_2e_2 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4$

$\mathbf{J}_{13}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = -e_3 \quad e_3e_1 = -e_4$

$\mathbf{J}_{14}^{4}:\quad e_1e_1 = e_4 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = -e_3 \quad e_3e_1 = -e_4$

$\mathbf{J}_{15}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = -e_3 + e_4 \quad e_3e_1 = -e_4$

$\mathbf{J}_{16}^{4}:\quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = -e_3 \quad e_2e_2 = e_4 \quad e_3e_1 = -e_4$

$\mathbf{J}_{17}^{4}:\quad e_1e_1 = e_4 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = -e_3 \quad e_2e_2 = e_4 \quad e_3e_1 = -e_4$

$\mathbf{J}_{18}^{4}:\quad e_1e_1 = e_2 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_1 = e_3 \quad e_2e_2 = e_4 \quad e_3e_1 = e_4$

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limida kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralarning algebraik tasnifi keltirilgan.

Aytaylik, $(\mathbf{A},\cdot)$ kompleks sonlar maydoni ustida berilgan kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebra va $\mathbb{V}$ shu maydon ustida chiziqli fazo bo‘lsin. $\mathrm{Z}^2(\mathbf{A},\mathbb{V})$ orqali quyidagi ayniyatlarni qanoatlantiruvchi barcha bichiziqli θ:**A**×**A**→$\mathbb{V}$ akslantirishlar to‘plamini belgilaymiz:

$$\theta(x,y)=\theta(y,x), \tag{4}$$

$$\theta((xy)a,b)+\theta((xb)a,y)+\theta(x,(yb)a)=\theta((xy)b,a)+\theta((xa)b,y)+\theta(x,(ya)b). \tag{5}$$

Bu bichiziqli akslantirishlar kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebraning trivial 2-kosikllari deb ataladi. Qayd etish joizki, Yordan algebralari ko‘pxilligi kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralari ko‘pxilligining qism ko‘pxilligi bo‘ladi. Shuning uchun, (3) va (4) ayniyatlarni qanoatlantiruvchi trivial ikkinchi kosikl kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebrasi uchun ham trivial ikkinchi kosikl bo‘ladi. Shunga ko‘ra, $\mathrm{H}^2_{\mathfrak{J}}(\mathbf{A})$ va $\mathrm{H}^2_{\mathfrak{CD}}(\mathbf{A})$ orqali **A** algebraning mos ravisgda Yordan va kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebra algebraga nisbatan ikkinchi kogomologik fazolarini belgilaymiz.

Quyidagicha beilgilashlarni kiritaylik:

C^{i}_{j} – *j-sondagi i-o‘lchamli kommutative* $\mathfrak{CD}$ (*non-Jordan*) *algebra.*

C^{i*}_{j} – *j-sondagi i-o‘lchamli kommutative* $\mathfrak{CD}$ (*Jordan*) *algebra.*

A.Kalderon Martin, A.Fernandez Ouaridi hamda I.Kaygorodov ilmiy ishida quyidagi kompleks 4-o‘lchamli kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralar ro‘yxati keltirilgan:

C^{2*}_{01} : $e_1e_1=e_2$

C^{3*}_{02} : $e_1e_1=e_2$ $e_1e_2=e_3$

C^{3*}_{03} : $e_1e_2=e_3$

C^{3}_{01} : $e_1e_1=e_2$ $e_2e_2=e_3$

C^{4*}_{04} : $e_1e_1=e_3$ $e_2e_2=e_4$

C^{4*}_{05} : $e_1e_1=e_3$ $e_1e_2=e_4$

C^{4*}_{06} : $e_1e_1=e_4$ $e_2e_3=e_4$

$\mathrm{C}^{4}_{02}(0)$: $e_1e_1=e_2$ $e_1e_2=e_4$ $e_2e_2=e_3$

Bundan tashqari, A.Fernandez Ouaridi, I.Kaygorodov, M.Khrypchenko va Y.Volkov ishlarida 3-o‘lchamli kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralarning markaziy kengaymalari orqali hosil qilingan quyidagi 4-o‘lchamli kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralar keltirilgan:

C^{4*}_{07} : $e_1e_1=e_2$ $e_2e_3=e_4$

C^{4*}_{08} : $e_1e_1=e_2$ $e_1e_2=e_4$ $e_3e_3=e_4$

C^{4}_{03} : $e_1e_1=e_2$ $e_1e_3=e_4$ $e_2e_2=e_4$

C^{4}_{04} : $e_1e_1=e_2$ $e_2e_2=e_4$ $e_3e_3=e_4$

C^{4*}_{09} : $e_1e_1=e_2$ $e_1e_2=e_3$ $e_1e_3=e_4$ $e_2e_2=e_4$

$\mathrm{C}^{4}_{02}(\alpha)$: $e_1e_1=e_2$ $e_1e_2=e_3$ $e_1e_3=\alpha e_4$ $e_2e_2=(\alpha+1)e_4$

C^{4*}_{10} : $e_1e_2=e_3$ $e_1e_3=e_4$ $e_2e_2=e_4$

C_{11}^{4*} : $e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4 \quad e_2e_3 = e_4$

C_{12}^{4*} : $e_1e_2 = e_3 \quad e_1e_3 = e_4$

C_{05}^{4} : $e_1e_2 = e_3 \quad e_3e_3 = e_4$

C_{06}^{4} : $e_1e_1 = e_4 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_2e_2 = e_4 \quad e_3e_3 = e_4$

C_{07}^{4} : $e_1e_1 = e_4 \quad e_1e_2 = e_3 \quad e_3e_3 = e_4$

Ma'lumki, C_{01}^{2*} algebraning har qanday 3-o'lchamli markaziy kengaytmasi ajraluvchi algebra bo'ladi. Shuning uchun, 5-o'lchamli ajralmaydigan algebralarning to'liq tasnifini hosil qilish uchun $\mathrm{C}_{01}^{3*} = \mathrm{C}_{01}^{2*} \oplus \mathbb{C}e_3$, C_{02}^{3*}, C_{03}^{3*}, C_{01}^{3} algebralarning 2-o'lchamli markaziy kengaytmalarini va 4-o'lchamli nilpotent kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralarning 1-o'lchamli markaziy kengaytmalarini qarash yetarli.

Quyida, biz 3- va 4-o'lchamli kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralarning ikkinchi kogomologik fazolarining tasnifini keltriamiz. Biz Yordan bo'lmagan kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebralarni topishni maqsad qilganimiz uchun uchbu natijalarda algebralarning Yordan kogomologiyalari ham keltirilgan.

2-tasdiq. *Quyidagi elementlar 3-o'lchamli nilpotent kommutativ $\mathfrak{CD}$-algebraining ikkinchi kogomologik fazolari uchun bazis bo'ladi*:

Algebra	Yordan kogomologiya	$\mathfrak{CD}$-kogomologiya
C_{01}^{3*}	$\mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{01}^{3*}) = \langle [\Delta_{12}],[\Delta_{13}],[\Delta_{23}],[\Delta_{33}] \rangle$	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{01}^{3*}) = \mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{01}^{3*}) \oplus \langle [\Delta_{22}]$
C_{02}^{3*}	$\mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{02}^{3*}) = \langle [\Delta_{13} + \Delta_{22}] \rangle$	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{02}^{3*}) = \mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{02}^{3*}) \oplus \langle [\Delta_{22}] \rangle$
C_{03}^{3*}	$\mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{03}^{3*}) = \langle [\Delta_{11}],[\Delta_{22}],[\Delta_{13}],[\Delta_{23}] \rangle$	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{03}^{3*}) = \mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{03}^{3*}) \oplus \langle [\Delta_{33}] \rangle$
C_{01}^{3}	–	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{01}^{3}) = \langle [\Delta_{12}] \rangle$

3-tasdiq. C_{07}^{4*}, C_{11}^{4*}, C_{12}^{4*}, C_{01}^{4}, C_{03}^{4}, C_{04}^{4}, C_{05}^{4}, C_{06}^{4}, C_{07}^{4} *har qanday markaziy kengaymasi trivial bo'ladi hamda* C_{01}^{4*}, C_{02}^{4*}, ..., C_{09}^{4*}, $\mathrm{C}_{02}^{4}(\alpha)$ *algebraining ikkinchi kogomologik fazolari uchun basis elementlar quyidagicha bo'ladi.*

Algebra	Yordan kogomologiya	$\mathfrak{CD}$-kogomologiya
C_{01}^{4*}	$\mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{01}^{4*}) = \langle [\Delta_{ij}] \rangle_{1\le i\le j\le 4}^{(i,j)\notin\{(1,1),(2,2)\}}$	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{01}^{4*}) = \mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{01}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{22}]$
C_{02}^{4*}	$\mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{02}^{4*}) = \left\langle \begin{matrix} [\Delta_{13} + \Delta_{22}],[\Delta_{14}], \\ [\Delta_{24}],[\Delta_{44}] \end{matrix} \right\rangle$	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{02}^{4*}) = \mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{02}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{13}] \rangle$
C_{03}^{4*}	$\mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{03}^{4*}) = \langle [\Delta_{ij}] \rangle_{1\le i\le j\le 4}^{(i,j)\notin\{(1,2),(3,3)\}}$	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{03}^{4*}) = \mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{03}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{33}] \rangle$
C_{04}^{4*}	$\mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{04}^{4*}) = \left\langle \begin{matrix} [\Delta_{12}],[\Delta_{13}],[\Delta_{14}], \\ [\Delta_{23}],[\Delta_{24}] \end{matrix} \right\rangle$	$\mathrm{H}_{\mathfrak{CD}}^2(\mathrm{C}_{04}^{4*}) = \mathrm{H}_{\mathfrak{J}}^2(\mathrm{C}_{04}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{33}],[\Delta_{34}],[\Delta_{44}] \rangle$

C_{05}^{4*}	$H_{\mathfrak{J}}^2(C_{05}^{4*}) = \left\langle \begin{matrix}[\Delta_{13}],[\Delta_{14}],[\Delta_{22}], \\ [\Delta_{23}],[\Delta_{24}]\end{matrix} \right\rangle$	$H_{\mathfrak{CD}}^2(C_{05}^{4*}) = H_{\mathfrak{J}}^2(C_{05}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{33}],[\Delta_{34}],[\Delta_{44}] \rangle$
C_{06}^{4*}	$H_{\mathfrak{J}}^2(C_{06}^{4*}) = \langle [\Delta_{ij}] \rangle_{1\le i\le j\le 4}^{(i,j)\notin\{(1,1),(4,4)\}}$	$H_{\mathfrak{CD}}^2(C_{06}^{4*}) = H_{\mathfrak{J}}^2(C_{06}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{44}] \rangle$
C_{08}^{4*}	$H_{\mathfrak{J}}^2(C_{08}^{4*}) = \left\langle \begin{matrix}[\Delta_{13}],[\Delta_{14}+\Delta_{22}], \\ [\Delta_{23}],[\Delta_{33}]\end{matrix} \right\rangle$	$H_{\mathfrak{CD}}^2(C_{08}^{4*}) = H_{\mathfrak{J}}^2(C_{08}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{14}] \rangle$
C_{09}^{4*}	$H_{\mathfrak{J}}^2(C_{09}^{4*}) = \langle [\Delta_{14}] + [\Delta_{23}] \rangle$	$H_{\mathfrak{CD}}^2(C_{09}^{4*}) = H_{\mathfrak{J}}^2(C_{09}^{4*}) \oplus \langle [\Delta_{22}] \rangle$
$C_{02}^{4}(\alpha)$	–	$H_{\mathfrak{CD}}^2(\mathfrak{C}_{02}^4(\alpha)_{\alpha\neq 0,1}) = \langle [\Delta_{22}],[\Delta_{14}+(3+\alpha)\Delta_{23}] \rangle$ $H_{\mathfrak{CD}}^2(\mathfrak{C}_{02}^4(1)) = \langle [\Delta_{22}],[\Delta_{14}+4\Delta_{23}],[\Delta_{24}] \rangle$ $H_{\mathfrak{CD}}^2(\mathfrak{C}_{02}^4(0)) = \langle [\Delta_{13}],[\Delta_{14}+3\Delta_{23}] \rangle$

bu yerda $C_{01}^{4*} = C_{01}^{2*} \oplus \mathbb{C}e_3 \oplus \mathbb{C}e_4$.

Bu bo‘limning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat:

